

*Turniyozova Nargiza Raxmatovna
Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand sh.*

ARTEMISIA ABSINTHIUM L. O‘SIMLIGINING AYRIM BIOLOGIK XUSUSIYATI

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada achchiq shuvoq o‘simligining morfologiyasi, dorivorlik xususiyatlari, dala va laboratoriya sharoitlarida urug‘ unuvchanligi keltirilgan. O‘simlik uchun laboratoriya sharoitida optimal unish harorati va dala sharoitida qulay unish harorati aniqlangan. Tajribalar davomida olingan natijalar statistik qayta ishlangan va diagrammada keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Artemisia absinthium L., achchiq shuvoq, ermon, morfologiya, urug‘, unuvchanlik, dorivor.*

***Turniyozova Nargiza Raxmatovna
Lecturer at the Department of Biology
Uzbek-Finnish pedagogical institute
Samarkand, Republic of Uzbekistan***

SOME BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ARTEMISIA ABSINTHIUM L.

***Abstract:** This article presents the morphology and medicinal properties of the wormwood plant (*Artemisia absinthium* L.), as well as seed germination under field and laboratory conditions. The optimal germination temperature in laboratory settings and the favorable germination temperature under field conditions have been determined. The results obtained during the experiments were statistically processed and presented in the form of diagrams.*

***Keywords:** Artemisia absinthium L., wormwood, morphology, seed, germination, medicinal.*

Kirish. *Artemisia absinthium* L. (Achchiq shuvoq, ermon) ko‘p yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, balandligi 50 dan 100 sm gacha yetadi. Ildizpoyasi qisqa va tarmoqlangan bo‘lib, undan ildizga yaqin joylashgan barglar, gul hosil qiladigan bir nechta uzun poyalar hamda bargli qisqa poyalar rivojlanadi. Poyasi tik holda

o'sadi, ozgina qirrali tuzilishga ega va yuqori qismida shoxlanish kuzatiladi. Ildizga yaqin barglari uzun bandli bo'lib, uchburchak-yumaloq shaklga ega va ikki yoki uch marta patsimon tarzda bo'lingan bo'ladi (1-rasm). Poyadagi barglar qisqa bandli va turli ko'rinishlarda uchraydi: quyi qismidagilari ikki marta patsimon ajralgan, o'rta qismining barglari esa oddiy patsimon, yuqori qismidagilari esa uch bo'lakdan iborat bo'ladi. Barg bo'laklari asosan lansetsimon yoki chiziqsimon shaklda bo'lib, uchi butun, tekis chetli, ayrim hollarda esa tishsimon qirrali bo'lishi mumkin [1, 6].



1-rasm. *Artemisia absinthium* L. ning morfologiyasi [7]

Ushbu o'simlik quyidagi kasalliklarga qarshi ishlatilgan: gijja haydovchi, shamollashga qarshi, yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, depressiyaga qarshi, hazmni yaxshilovchi, hazmni yengillashtiruvchi, o't haydovchi dorivor vosita sifatida, shuningdek, hasharotlar va o'rgimchak chaqishlari, herpes va parazitik gijjalar bilan bog'liq infeksiyalarni davolashda [2]. *Artemisia* L. ning 260 dan ortiq turlari o'rganilgan, tadqiqot natijalari ko'ra farmakologik faoliyat va murakkab kimyoviy birikmalar bilan ko'p sonli metabolit sinflarini o'z ichiga olganligini ko'rsatadi [3].


Ermon shuvoq tarkibida 0,5-2% efir moyi (absintol), 0,09-0,53% absintin, 0,03% anabsintin, xamazulen, proxamazulenogen, artabsin, kofein, olma va askorbin kislotalari, karotin, arabsin va boshqa laktonlar, artemizetin flavonoidi, lignan, V6 vitamini hamda oshlovchi moddalar bo'ladi. Zamonaviy tabobatda ermon o'simligining galen preparatlari me'da-ichak yo'li ishini jonlantirib, o't

ajralishini va me'da osti bezi funksiyasini kuchaytirishi, ovqat hazmini ancha yaxshilashi aniqlangan. Uning tarkibidagi alkaloid va boshqa faol moddalar bakteriya va zamburug'larni o'ldirib, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi, absintin esa immunitetni jonlantirish xossasiga ham ega. Ermon tarkibida bo'ladigan efir moyi farmakologik xossalari jihatidan kamforaga yaqin turadi, markaziy asab tizimini qo'zg'atib, yurak ishini joyiga keltiradi [3,4].

Material va metodlar. O'simlikning fenologiyasi, o'sishi va rivojlanishi I.N.Beydeman va boshqalar metodikasi bo'yicha o'rganildi. Sutkalik va mavsumiy gullash va urug' biologiyasini o'rganishda Ponomoryov metodikasidan foydalanildi, o'simlikning fitosenozda tutgan o'rni Drudening 6 ballik shkalasi yordamida aniqlandi. O'simlikning ilmiy nomlari plantarium.ru saytidan aniqlandi. Olingan natijalar Excel-2011 datusrida qayta ishlandi [5].

Natijalar. O'simliklarning unib chiqishi uchun optimal harorat muhim ahamiyatga ega bo'lib, hamma o'simliklar uchun turli darajani tashkil etadi. 2025-yilda 12 oy saqlangan urug'larning turli harorat va namlikda laboratoriya sharoitida unuvchanligi kuzatilganda, urug'larning unib chiqishi uchun eng maqbul harorat +30... +35 bo'lib, unuvchanligi 8-10 kun ichida 68 % ni tashkil etadi. Harorat oshishi va pasayishi unuvchanlikka salbiy ta'siri etganligi kuzatildi. 20-25 haroratda unuvchanlik 25-30% ni tashkil etdi. 25-30 haroratda esa 30-35% ni tashkil etdi.

Achchiq shuvoq urug'larining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi (% hisobida besh takrorlikdan o'rtacha ko'rsatgichlar keltirilgan, urug'lar 50 tadan ekilgan) 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. *Artemisia absinthium L. ning urug' unuvchanligi*

Achchiq shuvoq o'simligining dala sharoitida unuvchanligi +20+25 haroratda 30-35 % ni tashkil etadi. +25+30 da 32-35 % ekanligi aniqlandi. Eng optimal sharoit +30+35 da 70-75% ni tashkil qildi.

Xulosa. Achchiq shuvoq o'simligi ko'p tomonlama foydali o'simlik bo'lib, o'simlikning urug' unuvchanligi laboratoriya sharoitida eng optimal harorat +30...+35 gradus bo'lib, unish foizi 62-68 ni tashkil qildi. Dala sharoitida esa o'zimlikning urug' unuvchanligi uchgun optimal sharoit +30...+35 gradusni tashkil qilib unuvchanlik foizi 72-78 ekanligi aniqlandi. Demak, achchiq shuvoq o'zimligini dala sharoitida urug'lardan ekib ko'paytirish uchun tavsiya qilish mumkin va bu o'simlikni ekib ko'paytirishda qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximjonova, S. (2024). Achchiq shuvoq o'simligining morfologiyasi, tarqalish ekologiyasi va xalqa tabobatida qo'llanilishi. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 3(28), 72-75.
2. Goud, B. J., Dwarakanath, V., & Swamy, B. K. (2015). A review on history, controversy, traditional use, ethnobotany, phytochemistry and pharmacology of *Artemisia absinthium* Linn. International Journal of Advanced Research in Engineering and Applied Sciences, 4(5), 77-107.
3. Choriyev O. J. va boshqalar (2023). Yovvoyi dorivor o'simliklar. Ilmiy-ommabop risola. 19-23.

4. Rahmonqulov, U., Umirov, N. H., & Xurramov, O. (2017). Jizzax davlat pedagogika instituti Jizzax viloyati muhofaza hududlarida uchrovchi “Qizil kitob” ga kiritilgan o‘simliklar haqida. Минтақавий муаммолари.–2017.
5. Tolipova, M. J. (2024). Glycyrrhiza glabra L. o‘simligining urug‘unuvchanligi. SAMBHRAM xabarnomasi, 1(1), 226-228.
6. Хайитов, Ю. К., & Джурахужаев, Д. Д. (2024). Теоретические и методологические основы изучения антропогенных ландшафтов. Экономика и социум, (4-1 (119)), 1157-1161.
7. www.plantarium.ru